ONA METABOLIZMINI HISOBGA OLGAN HOLDA BOLALARDA CHO‘ZILGAN SARIQLIKDA CHORA-TADBIRLAR REJASI VA HARAKATLAR ALGORITMINI ISHLAB CHIQISH

Sharipova Sarvinoz Maqsudovna
Urganch davlat tibbiyot instituti, Urganch, O‘zbekiston

Dolzarbligi. Chaqaloqdagi cho‘zilgan sariqlikni baholashda faqat bolaning klinik va laborator ko‘rsatkichlarini emas, balki onaning homiladorlik davridagi nutritiv va metabolik holatini ham hisobga olish muhimdir. Shu munosabat bilan “ona-bola” yagona metabolik tizimi doirasida xavf omillarini baholash hamda shaxsiylashtirilgan diagnostik algoritm ishlab chiqish zamonaviy neonatologiyaning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Ona metabolizmini hisobga olgan holda bolalarda cho‘zilgan sariqlikni erta aniqlash, uning kechishini baholash hamda shaxsiylashtirilgan chora-tadbirlar rejasi va shifokor harakatlari algoritmini ishlab chiqish.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot 2023–2026-yillarda XVBKTTMda o‘tkazildi. Tekshiruvga cho‘zilgan giperbilirubinemiya aniqlangan 140 nafar yangi tug‘ilgan chaqaloq va ularning 140 nafar onasi, jami 280 nafar shaxs jalb qilindi. Immun-biokimyoviy tekshiruvlar uchun 80 ta ona-bola juftligi tanlab olindi. Bolalarning 100 nafari (71,4%) o‘g‘il, 40 nafari (28,6%) qiz bo‘lib, barcha chaqaloqlar muddatida tug‘ilgan.Onalarning homiladorlikdan oldingi tana vazni indeksi asosida bolalar to‘rtta guruhga ajratildi: 1-guruhga ortiqcha vaznli onalardan tug‘ilgan 57 nafar bola (40,7%), 2-guruhga I–II darajali semizlik mavjud onalardan tug‘ilgan 21 nafar bola (15,0%), 3-guruhga tana vazni tanqisligi bo‘lgan onalardan tug‘ilgan 25 nafar bola (17,8%) va nazorat guruhiga normal tana vazniga ega sog‘lom onalardan tug‘ilgan 37 nafar bola (26,4%) kiritildi. Onalarning o‘rtacha yoshi guruhlarda mos ravishda 28,2±4,7; 27,1±4,2; 28,9±4,6 va 27,4±4,0 yoshni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari. Cho‘zilgan sariqlik kuzatilgan bolalarning 55,7%ini ortiqcha vaznli yoki semizlik mavjud onalardan tug‘ilgan chaqaloqlar tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich tana vazni tanqisligi va normal vaznga ega onalardan tug‘ilgan bolalar ko‘rsatkichiga nisbatan statistik jihatdan yuqori bo‘ldi ($p<0,001$; 95% ishonch oralig‘i 47,4–67,3%).Onalardagi metabolik sindrom tuzilishi tahlil

qilinganda, 103 nafar ayolning 38 nafarida (36,9%) gestatsion gipertenziya, 24 nafarida (23,3%) 2-tip qandli diabet, 11 nafarida (10,7%) 1-tip qandli diabet, 18 nafarida (17,5%) gestatsion diabet va 12 nafarida (11,6%) preeklampsiya aniqlangan.I–II darajali semizlik mavjud onalarda yallig‘lanish jarayonining faollashuvi kuzatildi. Ushbu guruhda C-reaktiv oqsil miqdori 2,34±0,21 mg/l, prokalsitonin 0,28±0,10 ng/ml va VEGF-A 95,8±7,3 pg/mlni tashkil etib, nazorat guruhiga nisbatan mos ravishda 1,3; 5,6 va 1,3 baravar yuqori bo‘ldi ($p<0,05$). Ortiqcha vaznli onalarda prokalsitonin darajasi nazorat guruhidagi 0,05±0,02 ng/mlga nisbatan 0,15±0,04 ng/mlgacha, ya’ni 3 baravar oshgan ($p<0,05$).Lipid almashinuvi tahlilida umumiy xolesterin miqdori ortiqcha vaznli onalarda 6,42±0,62 mmol/l, semizlik mavjud onalarda 7,10±0,67 mmol/l, nazorat guruhida esa 4,72±0,37 mmol/lni tashkil etdi. Bolaning umumiy bilirubini onaning aterogenlik indeksi bilan ham musbat korrelyatsiyaga ega bo‘ldi ($r=0,45$). Onadagi past zichlikdagi lipoproteinlar miqdori bolaning to‘g‘ri bilirubin fraksiyasi bilan musbat bog‘langan ($r=0,52$), bolaning qon glyukozasi bilan esa teskari bog‘liqlik ko‘rsatgan ($r=-0,33$). Bu natijalar semizlik mavjud onalardan tug‘ilgan bolalarda gipoglikemiya va neonatal xolestaz xavfi yuqoriligini tasdiqlaydi.Tana vazni tanqisligi mavjud onalardan tug‘ilgan bolalarda onaning umumiy xolesterini bilan bolaning bilvosita bilirubini o‘rtasida teskari korrelyatsiya qayd etildi ($r=-0,42$). Ona tana vazni indeksi bolaning bilvosita bilirubin miqdori bilan musbat bog‘langan ($r=0,34$). Mazkur guruhdagi bolalarda sariqlikning cho‘zilib kechish xavfi yuqori bo‘lsa-da, neonatal xolestaz rivojlanish xavfi ortiqcha vaznli va semizlik mavjud onalardan tug‘ilgan bolalarga nisbatan pastroq bo‘ldi.

Xulosa. Ona metabolizmini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi va harakatlar algoritmi cho‘zilgan neonatal sariqlik xavfini erta baholash, xolestaz, gipoglikemiya, gipoproteinemiya va gepatobiliar asoratlarni o‘z vaqtida aniqlash imkonini beradi.